

**ENTIYOJMAND TOIFADAGI AHOLI QATLAMLARIGA KO'RSATILAYOTGAN IJTIMOY
XIZMATLARNI SAMARALI TASHKIL ETISHDA MAMLAKATIMIZDA AMALGA
OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA XORIY TAJRIBASI**

**РЕФОРМЫ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ, ПРОВОДИМЫЕ В НАШЕЙ СТРАНЕ В ОБЛАСТИ
ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОЦИАЛЬНЫХ УСЛУГ, ПРЕДОСТАВЛЯЕМЫХ
СОЦИАЛЬНО НЕЗАЩИЩЕННЫМ СЛОЯМ НАСЕЛЕНИЯ**

**REFORMS AND FOREIGN EXPERIENCE CARRIED OUT IN OUR COUNTRY IN THE FIELD
OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF SOCIAL SERVICES PROVIDED TO SOCIALLY VULNERABLE
SEGMENTS OF THE POPULATION**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12111242>

Tolibov Bekzod Hakimovich

*Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy ish kafedrasini mudiri,
Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD*

Annotatsiya: *Maqolada aholining ehtiyojmand qatlamlariga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda mazkur faoliyat yuzasidan xorijiy davlatlar tajribasi atroflicha tahlil qilingan. Aholining ehtiyojmand qatlamiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish masalalarini o'rganish va uning holatlarini yanada yaxshilash imkoniyatlari yuzasidan turli fan namoyondalari tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirishda innovatsion yondashuv asosida rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalaridan foydalanish, ijtimoiy xizmatlarni tashkiliy mexanizmlarini tizimli tartibga solish va takomillashtirish, bu borada zarur imkoniyatlarni yaratishga ko'maklashadigan sotsiologik ilmiy izlanishlarni amalga oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy xizmat, ehtiyojmand, innovatsiya, nogironligi bo'lgan shaxs, tadqiqot, imtiyoz, subsidiya, yordam.*

Аннотация: *В статье представлен всесторонний анализ реформ, проводимых в нашей стране в сфере предоставления социальных услуг социально незащищенным слоям населения, а также опыта зарубежных стран в этой деятельности. Различными деятелями науки были проведены исследования по вопросам социального обслуживания обездоленных слоев населения и возможности дальнейшего улучшения их условий. При совершенствовании системы социального обслуживания важно использовать передовой опыт развитых зарубежных стран на основе инновационного подхода, систематически регулировать и совершенствовать организационные механизмы социального обслуживания,*

проводить социологические научные исследования, способствующие созданию необходимых возможностей в этом плане.

Ключевые слова: *социальное обслуживание, неимущие, инновации, инвалид, исследование, привилегия, субсидия, помощь.*

Abstract: *The article presents a comprehensive analysis of the reforms carried out in our country in the provision of social services to socially vulnerable segments of the population, as well as the experience of foreign countries in this activity. Various scientists have conducted research on social services for disadvantaged segments of the population and the possibility of further improvement of their conditions. When improving the social service system, it is important to use the best practices of developed foreign countries on the basis of an innovative approach, systematically regulate and improve the organizational mechanisms of social services, conduct sociological research that contributes to the creation of the necessary opportunities in this regard.*

Keywords: *social service, the poor, innovation, disabled person, research, privilege, subsidy, assistance.*

KIRISH

Mamlakatimizda ehtiyojmand aholi qatlami hisoblangan nogironligi bo'lgan insonlar shaxslarni ta'limga jalb etish va manzilli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Keyingi yillarda kam ta'minlangan, nogironligi bo'lgan insonlar, yoshlar, xotin-qizlar, keksa avlod vakillarini ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bizning barcha iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarimiz, yirik investitsiya loyihalarimiz, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarimizning markazida aynan shu muhim masala asosiy maqsad va vazifa bo'lib turibdi». [1] Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirishda innovatsion yondashuv asosida rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalaridan foydalanish, ijtimoiy xizmatlarni tashkiliy mexanizmlarini tizimli tartibga solish va takomillashtirish, bu borada zarur imkoniyatlarni yaratishga ko'maklashadigan sotsiologik ilmiy izlanishlarni amalga oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2017 yil 1 dekabrda PF-5270-son «Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019 yil 22 fevraldagi PF-5667-son «Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida», 2021 yil 25 martdagi PF-6195-son «Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, «Saxovat» va «Muruvvat» internat uylari tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida»gi farmonlari, 2020 yil 4 avgustdagi PQ-4797-son «Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2021 yil 25 martdagi

PQ-5038-son «O‘zbekiston Respublikasi tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida», 2021 yil 21 dekabrda PQ-57-son «Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 1-iyuldagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli islohotlarni izchil amalga oshirilishida va yangi bosqichga oli chiqishda muayyan darajada xizmat qiladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Aholining ehtiyojmand qatlamiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda ta‘lim jarayoni muhim o‘rin egallaydi. Jumladan, 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim to‘g‘risida»gi qonunining ijtimoiy yordamga va tiklanishga muhtoj bo‘lgan shaxslar uchun o‘quv-tarbiya muassasalari deb nomlangan 24-moddasida, alohida sharoitlarda tarbiyalanish va o‘qishga muhtoj bo‘lgan bolalar va o‘spirinlar uchun ularning bilim olishi, kasb tayyorgarligi va ijtimoiy tiklanishini ta‘minlaydigan ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari tashkil etiladi. Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tash muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning ta‘lim olishi va mustaqil bilim olishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sharoitlar yaratiladi». [2] Oradan yigirma yildan ortiq vaqt o‘tib ushbu qonun zamon talablariga moslashtirish maqsadida 2020 yil 23 sentabrda yangi tahrirda «O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. [3] Agar ijtimoiy xizmatlar nuqtai-nazaridan qaraydigan bo‘lsak, yangi tahrirdagi qonunning 20-moddasi inklyuziv ta‘lim tushunchasi kiritilishi, 56-moddasida esa ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj bo‘lgan bolalarni (shaxslarni) o‘qitish va tarbiyalashga oid normalar kiritilgan. 56-moddadagi normalar oldingi qonundagi 24-moddani yanada to‘ldirganini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari 1997 yilda qabul qilingan qonun jami bo‘lib 34 ta moddani o‘z ichiga olgan bo‘lsa, 2020 yilda qabul qilingan qonun 75 ta moddadan iborat bo‘lgan. Ko‘rinib turibdiki, yangi tahrirdagi qonunda qo‘shimcha yana 41 ta modda kiritilgan. Albatta, bu ham mamlakatimizda ijtimoiy sohadagi yangilanishlar va islohotlar natijasining yaqqol namunasi deb ta‘riflash mumkin.

Aholining ehtiyojmand qatlamlariga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish mexanizmlari va tizim faoliyatini samaradorligini oshirishda xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish muhimdir. Aynan mana shunday ilg‘or tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish va mavjud muammolar yechimini topishda Amerika, Yevropa va Osiyo davlatlarini tajribalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish borasida Germaniya Federativ Respublikasining tajribalari bir muncha yuqori hisoblanadi. Germaniya Yevropa mamlakatlari ichida aholi hayotining farovonligi bo‘yicha yetakchi davlatlardandir. Yevropa mamlakatlari gohida Germaniyani «Ijtimoiy davlat» yoki ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan odamlar uchun himoya qalqoni bo‘lgan davlat ham deb atashadi. Mamlakatdagi ijtimoiy sug‘urta tizimi

amalda aholining minimal daromadga ega bo'lishini ta'minlab berolmasa-da, ijtimoiy yordam tizimi ularning daromad yoki ijtimoiy sug'urta foyda hisobidan yashay olmaydigan kishilar uchun minimal standartini kafolatlaydi. [4]

Germaniya XIX asr oxirida O.Bismark davrida ijtimoiy sug'urta qilish amaliyotini joriy etgan dastlabki davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda ishchilar sonining o'sib borishi natijasida ishchilarning siyosiy talablarga javoban 1883 yilda birinchi tibbiy sug'urta sifatida baxtsiz hodisalardan sug'urtalanish tizimi joriy qilingan. 1884 yilda nogironlik va qarilik sug'urtasi, 1889 yilda ishsizlik sug'urtasi, oradan bir asr o'tib 1994-yilda ijtimoiy sug'urta tizimining beshinchi darajasi sifatida uzoq muddatli nogironlikka qarshi sug'urta qilish amaliyoti ham joriy qilingan. [5]

Germaniyada aholining ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy yordamlar muhtoj kishilarning ehtiyojlarini qondirish uchun individual yondashuv tamoyiliga ko'ra tashkil etiladi, lekin ularga beriladigan nafaqalar yagona standart asosida beriladi. Ijtimoiy yordamlar esa o'z ko'rinishiga ko'ra standart hajmdagi nafaqalar, muhim to'lovlar, bir martalik nafaqalar va uy-joy subsidiyalaridan iborat to'rtta komponentni qamrab olgan.

Germaniyada ehtiyojmand aholi toifalariga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bilan cheklanmaydigan ijtimoiy yordam tizimi isloq qilinmokda. Davlat ijtimoiy xodimlar oldiga o'z mijozlarining ijtimoiy yordamga qaramligiga barham berish, ishsizlarni mehnat bozorida yuz berayotgan jarayonlarda qatnashtirish vazifasini qo'yimoqda. Ijtimoiy ta'minot sohasini boshqarish; keksalar ehtiyojlarini ta'minlash, xayriya yordami tizimini rivojlantirish singari davlatni ijtimoiy rivojlantirish tamoyillari asosida ijtimoiy xizmatchilar oldiga yangidan vazifalar qo'yilmoqda. [6]

Germaniya mehnat bozori uzoq muddatli inqirozni boshdan kechirar ekan, ishsizlar tobora ijtimoiy izolyatsiya xavfiga duch keldi. Ko'p yillar davomida mehnat bozorida bo'lmagan, odamlar nafaqat oddiy pullik ishlarni bajarish ko'nikmalarini yo'qotish, balki ko'p hollarda ularning psixologik holatining yomonlashuvi kuzatiladi. 1980-yillar boshida kelib chiqqan ijtimoiy ishchilar yangi ijtimoiy harakatlar, «Ijtimoiy korxonalar» doirasida demokratik kuch va jamoaviy o'z-o'ziga yordam berishning yangi tushunchalarini targ'ib qildi. Natijada nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan aholining ehtiyojmand qatlamlarini ish bilan ta'minlash, o'qitish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy xizmati ko'rsatish turkumiga kiritildi va bu g'oya keyinchalik butun mamlakatda joriy qilindi. [7]

Fikrimizcha, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda Germaniya tajribasi boshqa Yevropa mamlakatlari bir oz farq qiladi. Aholining ehtiyojmand qatlamlariga ijtimoiy yordam ko'rsatishda subsidiya berish tajribasi ahamiyatlidir. Iqtisodiy, moliyaviy yoki ijtimoiy jihatdan og'ir vaziyatga tushgan odamlar uchun o'zlarini tiklab olishlari va hamma qatori farovon hayotda yashashlari uchun davlat tomonidan ularga qarz ko'rinishida subsidiya berilib so'ngra bu qarzlarni imtiyozli muddatlarda hech qanday foizlarsiz qaytarish amaliyoti ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshiradi. Germaniyadagi ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishdagi yana bir ahamiyatli jihati shundaki, ijtimoiy xizmatlar obyekti bo'lgan nogironligi bor odamga yoki keksalarga birlashtirilgan ijtimoiy xizmatchilar imkoni boricha faqat shu odamga

oxirigacha birga bo'lish talabini qo'yilishidir. Bunda ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchilarni tez-tez almashishi ijtimoiy xizmatlar obyektni tiklanishiga to'sqinlik qiladi degan tushuncha va tamoyil asosida ijtimoiy xizmatlarni uzoq muddat davom ettiriladi.

Fransiyada ijtimoiy xizmatlar davlat siyosatining ko'plab sohalariga singdirilgan. Jumladan, sog'liqni saqlash, ona va bola salomatligi, uyga borib yordam berish xizmatlari, nogironligi bor odamlar uchun ijtimoiy xizmat, ijtimoiy xavfsizlik, hamshiralar va enagalar xizmati, ijtimoiy ishchilar va psixologlar, maktablar va universitetlarda ijtimoiy xizmatlar, jinoyatchilar uchun ijtimoiy xizmatlar, mahbuslar va ularning oilalariga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan muassasalar va markazlar faoliyat ko'rsatadi.

Fransiyada aholining ehtiyojmand qatlamiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasining ahamiyatli jihati shundaki, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish jarayonida bir qancha vazirliklar integratsion tartibda ish olib borishidir. Masalan, ijtimoiy ta'minot chora-tadbirlarini amalga oshirishga doir vazifalarni «Ijtimoiy munosabatlar va hamjihatlik» vazirligi (Ministère des Affaires Sociales et de la Solidarité Nationale) tomonidan amalga oshirilsa, «Sog'liqni saqlash, oila va nogironlar ishlari bo'yicha» vazirligi (Ministère de la Santé, de la Famille et des Personnes Handicapées) mamlakatda sog'liqni saqlash bilan ishlari bilan birga imkoniyati cheklangan va nogironligi bor shaxslar ijtimoiy xizmatlar tashkil qilish jarayonini muvofiqlashtiradi. Mahalliy va hududiy darajasida esa o'zini-o'zi boshqaruvchi organlar sifatida (Régions), (Départements) va (Communes) munitsipalitetlar ko'rinishidagi ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarni ham keltirib o'tish mumkin. [8]

Fransiyada umumiy ijtimoiy yordam dasturi bo'yicha ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklarga chalinganlar va keksa odamlar, nogironligi bor shaxslar (jismoniy va ruhiy), boshpanasiz fuqarolar, daromad va ijtimoiy himoyaga muhtoj odamlar, ishsizlar, kasbiy ko'nikmalari yo'q odamlar, giyohvandlikka chalinganlar, huquqbuzarlik va zo'ravonlik qurbonlari bo'lgan odamlarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatiladi. [9]

Ijtimoiy xizmatlar turiga ijtimoiy ish, uy yordami, boshpanalar tashkil etish, ijtimoiy muassasalarga joylashtirish, rehabilitatsiya markazlariga joylashtirish, uy-joy sharoitlari va maishiy muhitni yaxshilash kabi xizmatlar kiradi.

Fikrimizcha, dasturning asosiy vazifasi profilaktik choralar ko'rish bo'lsa-da, fuqarolarning ishonchsizligiga olib keladigan ijtimoiy va iqtisodiy vaziyatlarni oldini olishdan ko'ra, qiyin vaziyatlarni aniqlash, yordam ko'rsatish va aholining eng zarur ehtiyojlarini qondirish tashkil qiladi. Fransiya qonunchiligi bo'yicha aholining ehtiyojmand qatlamlari hisoblangan eng zaif fuqarolar uchun ijtimoiy xizmatlar benefitsiar huquq tizimiga asoslanadi, ammo ko'p hollarda ijtimoiy xizmatlarni amalga oshirmaganlik uchun javobgarlik mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasida qoladi. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish borasida Fransiya qonunchiligida shuni ko'rish mumkinki, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda ishtirok etuvchi muassasalar ishini muvofiqlashtirishda nomarkazlashtirish siyosati ustuvorligini ko'rish mumkin.

Yaponiyaning ijtimoiy ta'minot tizimiga ijtimoiy sug'urta dasturlari va kundalik hayotning keng miqyosli xavf-xatarlaridan himoya qilish uchun mo'ljallangan ijtimoiy

xizmatlar kiradi. Yaponiyada ijtimoiy yordam dasturi «so'nggi chora» deb nomlanib, qiyin hayotiy vaziyatga tushgan odamlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish vazifasini bajaradi. Ushbu dastur standarti ko'ra, «to'liq va to'g'ri» turmush tarzi uchun odamlar huquqini davlat tomonidan birdek kafolatlash muhim hisoblanadi.

Yaponiyada umr ko'rish ko'rsatgichlari boshqa mamlakatlarga nisbatan bir muncha yuqori bo'lganligi sababli keksalar sonining doimiy oshib borishi natijasida aholining salmoqli qismini keksalar tashkil qiladi. Keksalarga munosib g'amxo'rlik ko'rsatish va ularni qo'llab-quvvatlashga doir davlat tomonidan ko'rilgan chora tadbirlar natijasida pensiyaga chiqish yoshi 65 yosh bo'lishiga qaramasdan keksa yoshdagi Yaponiya fuqarolarning 80% ehtiyojmand aholi qismi deb hisoblanmaydi. Muhtoj keksalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish masalasi esa mamlakatda doim dolzarb hisoblanadi. [10]

Yaponiyaning ijtimoiy ta'minot dasturlari Sog'liqni saqlash, mehnat va ijtimoiy ta'minot vazirligi tomonidan boshqariladi. Ushbu vazirlik ijtimoiy ta'minot dasturlarini rejalashtirish va ularning strategik maqsadlari va moliyalashtirish manbalarini aniqlash uchun mas'uldir. Tartibga solish obyektlari mehnat standartlari, ish xavfsizligi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta hisoblanadi.

Ijtimoiy sug'urta agentligi Sog'liqni saqlash, mehnat va ijtimoiy ta'minot vazirligi bilan aloqador bo'lmasa-da, kichik va o'rta korxonalar xodimlari uchun tibbiy sug'urta xizmatlari, kasbiy pensiya sug'urta, asosiy pensiyalar, shuningdek dengizchilar uchun keng qamrovli sug'urta dasturi amalga oshiradi. Agentlik va uning joylardagi bo'linmalari bir-biri bilan yaqin aloqada va butun mamlakatni qamrab olgan umumiy tarmoqqa birlashgan tashkilotdir.

1990 yilda Yaponiya aholisining tez qarishi natijasida mamlakat iqtisodiyotida ortiqcha konsentratsiyaga duch kelganligi sababli aholining ijtimoiy ta'minoti bir muncha qisqargan va boquvchisini yo'qotgan oilalar va keksalardan iborat uy xo'jaliklari uchun beriladigan ko'plab imtiyozlar bekor qilgan. Natijada, mamlakatdagi ehtiyojmand aholi qatlami «favqulodda vaziyat» nomli ijtimoiy xizmat dasturidan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lganlar. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida Sog'liqni saqlash, mehnat va ijtimoiy ta'minot vazirligi 2003 yil «Maslahat qo'mitasi»ni shakllantirdi. Hozirgi vaqtda Yaponiyada Maslahat qo'mitasi aynan aholining ehtiyojmand toifalariga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga doir faoliyatni isloh qilish va ijtimoiy xizmatlarning zamonaviy texnologiyalarini amaliyotga joriy qilish masalalari bilan shug'ullanib kelmoqda. [11]

Aholining ehtiyojmand toifalariga ijtimoiy va tibbiy xizmatlar ko'rsatishda xalqaro tashkilotlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining bolalar jamg'armasi (YUNISEF) xalqaro tashkilotining maqsadi bola huquqlarini ta'minlash va butun dunyodagi bolalarga g'amxo'rlik qilish hisoblanadi. YUNISEFning 190 dan ortiq mamlakatlardagi vakolatxonalarida qashshoqlik, adolatsizlik, kamsitish va kasallik bepul sharoitida barcha bolalar va ularning farovonlik uchun munosib sharoitni ta'minlash borasida hamkorlik qiladi.

«Chegarasiz vrachlar»(Médecins Sans Frontières) (MSF) xalqaro tashkiloti. MSF 1971 yilda 22 dekabrda Fransiyada tashkil etilgan bo'lib, u bugungi kunda Yevropa va Shimoliy Amerikaning barcha mamlakatlari poytaxtlarida o'z vakolatxonalariga ega bo'lgan yirik xalqaro tibbiy-insonparvarlik nohukumat xalqaro tashkilotlaridan biri hisoblanadi. [12]

Ushbu xalqaro tashkilotning asosiy vazifasi qurolli to'qnashuvlar va tabiiy ofatlardan aziyat chekkanlarga va turli sabablar bilan tibbiy yordam rad etilgan shaxslarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishdir.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, inson ehtiyojlarini aniqlashdan shaxs huquqlarini zamonaviy tushunchalariga o'tish, shaxs tomonidan zamonaviy insonning real ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lib qoladi. Asosiy ehtiyojlar ijobiy qonun bilan qondiriladi, uni amalga oshirish davlat xalqaro shartnomalar tizimi va jamoat tashkilotlari va xayriya tuzilmalarining sa'y-harakatlari bilan amalga oshirilishi lozim. Bunday yondashuv ehtiyojmand aholi toifalaring ijtimoiy huquqlarini ro'yobga chiqarish ehtiyojlarni qondirish bilan uzviy bog'liqligini anglatadi. Turli tizimlarda ishlaydigan ijtimoiy ishchilar ehtiyojmand shaxslarning ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan huquqlarini himoya qiladi va shu bilan ularning yashash uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. «Xalq so'zi», 2019 yil 1 sentabr. № 180.

2.O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni.
<https://parliament.gov.uz/uz/laws/adopted/94/3277/>

3. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risida »gi qonuni.<https://lex.uz/docs/5013007>

4. Бородатая М. Социальная практика в Германии. Социальная работа.2005. № 4.– С.48.

5. Бородатая М. Социальная практика в Германии. Социальная работа.2005. № 4. – С.50.

6. Ganiyeva M. X. Ijtimoiy ish asoslari. Metodik qo'llanma - Toshkent, 2010 y. - 20 bet.

7. Международный опыт организации системы социальной помощи. На примере пяти стран. Москва, 2004. Международное бюро труда, 2004. – С.69-75.

8. Beland, Daniel & Hansen, Randall. Reforming the French welfare state: Solidarity, social exclusion and the three crises of citizenship. West European Politics. 2000. 23(1), - Pp.47–64.

9. Bode, I. A new agenda for european charity: Catholic welfare and organisational change in France and Germany. *Voluntas: International Journal of Voluntary and Nonprofit Organizations*, 2003.14(2), - P.205.
10. Хирои, Я. Социальное обеспечение Японии, стр. 1999. Iwanami Shoten. – P.80-97.
11. Международный опыт организации системы социальной помощи. На примере пяти стран. Москва, Международное бюро труда, 2004. – С.73.
12. Médecins Sans Frontières <https://ru.msf.org/country/uzbekistan>